

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

XAYDAROV XUMOYUN MUXTOR O‘G‘LI

**NASOS QURILMASINING ISH REJIMLARINI TASHQI TA’SIRLAR VA
ENERGIYA SAMARADORLIGINI HISOBGA OLGAN HOLDA
CHASTOTALI ELEKTR YURITMA ORQALI ROSTLASH**

**05.05.02 – Elektrotexnika. Elektr energiya stansiyalari, tizimlari. Elektrotexnik majmualar
va qurilmalar**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Xaydarov Xumoyun Muxtor o‘g‘li

Nasos qurilmasining ish rejimlarini tashqi ta’sirlar va energiya samaradorligini hisobga olgan holda chastotali elektr yuritma orqali rostdash 3

Хайдаров Хумоюн Мухтор угли

Регулировка режимов работы насосного устройства с помощью частотного электрического привода с учетом внешних воздействий и энергоэффективности 21

Khaydarov Khumoyun Mukhtor ugli

Adjustment of the operating modes of the pumping device using a frequency electric drive, taking into account external influences and energy efficiency 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

XAYDAROV XUMOYUN MUXTOR O‘G‘LI

**NASOS QURILMASINING ISH REJIMLARINI TASHQI TA’SIRLAR VA
ENERGIYA SAMARADORLIGINI HISOBGA OLGAN HOLDA
CHASTOTALI ELEKTR YURITMA ORQALI ROSTLASH**

**05.05.02 – Elektrotexnika. Elektr energiya stansiyalari, tizimlari. Elektrotexnik majmualar va
qurilmalar**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3326 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tstu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ishnazarov Oybek Xayrilayevich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Kolesnikov Igor Konstantinovich**
texnika fanlari doktori, professor

Abidov Qudrat G‘ayratovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Farg‘ona politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «25» aprel soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (236 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (100167, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 10 » aprel kuni tarqatildi.
(2025 yil « 1 » aprel dagi № 026 raqamli reyestr bayonnomasi).

R.V. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor

Y.O. Ruzmetov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

R.M. Mirsaatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda energiya tejamkorlik muhim mavzularga aylangan, bu ayniqsa elektr energiyasini iste'molida tejamkorlikning dolzarbligi ortib bormoqda. Energiyadan barqaror va samarali foydalanish zaruriyati butun dunyoda elektr energiyasiga bo'lgan talabning ortib borishi bilan bog'liq. Cheklangan energiya resurslar davrida ishlab chiqarilgan elektr energiyadan tejamkor foydalanish zamon talabiga aylandi. Dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan elektr energiyaning qariyb 65% ulushi asinxron motorlarda iste'mol qilinadi, shulardan 95% rostanmaydigan asinxron motorlarga hissasiga to'g'ri keladi. Nasos agregatlarida qo'llaniladigan asinxron motorlar ulushi esa qariyb 33% ni tashkil etadi. Shuni hisobga olgan holda, nasos agregatlarida qo'llaniluvchi asinxron motorlarda erishilgan energiya tejamkorlikning umumiy ta'siri sezilarli bo'lib, katta miqdorda elektr enegiyasi, shu bilan birga tabiiy gaz singari birlamchi energiya resurslar sarfini ham kamaytiradi. Shu sababli, nasos agregatlarida qo'llaniluvchi asinxron motorlarda energiya tejamkorlik va energiya samaradorlik bo'yicha qator ilmiy izlanishlar butun dunyo bo'yicha keng olib borilmoqda.

Jahonda sanoat korxonalarida texnologik suv ta'minot tizimlarida qo'llaniluvchi nasos qurilmalarining energiya samaradorligini oshirish uchun energiya tejamkor ish rejimlarini o'rganish, nasos agregatlarini chastota o'zgartirgichlar orqali boshqarishni joriy etish, texnologik jarayonda mavjud tashqi omillarning o'zgarishiga moslashgan holda nasos ish rejimlarini boshqarish, ishga tushirish va ishchi rejimlarida asinxron elektr yuritmaning elektromexanik tavsiflarini tadqiq qilish, nasos agregatining tashqi omillarga moslashgan holda boshqariladigan samarali ish rejimlarini o'rganish, shuningdek elektr energiya iste'molini boshqarish jarayonida texnik omillarning kompleks ta'sirini aniqlash masalalariga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda jumladan, energiya tejamkorlikni ta'minlashga imkon beruvchi zamonaviy usullar, ya'ni tashqi omillarni o'zgarishini inobatga olgan holda nasosning chastotali rostanuvchi elektr yuritmasi asosida nasos agregatlarining energiya tejamkor ish rejimlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda nasos agregatlarida qo'llaniluvchi uch fazali asinxron motorlarda energiya tejamkorlik chora-tadbirlari keng miqyosda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasidagi "Sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash dasturi" vazifalarini amalga oshirish belgilangan¹, 2024-yil 14-iyul PQ-222-son Qaroriga asosan respublikamizning barcha viloyat va shaharlarida ishlab chiqarish sohalarida hududlar miqyosida joylashishidan kelib chiqqan holda, elektr energiya sarfini 10% ga kamaytirish² chora tadbirlari to'g'risidagi, keltirilgan vazifalarni bajarishda nasos

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston 2030-Strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

² 2024-yil 14-iyul PQ-222-son Qaroriga asosan respublikamizning barcha viloyat va shaharlarida hududlar miqyosida elektr energiya sarfini 10% ga kamaytirish

agregatlarida qo‘llaniluvchi uch fazali asinxron motorlarda energiya tejamkorlikka erishish muhim masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-2030-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar Strategiyasining PF-158-son 52-iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarini uzluksiz energiya bilan ta‘minlash, 57-raqamli texnologiyalarni joriy etish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdagi PQ-4249-sonli “O‘zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi va 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari ijrosini ta‘minlashda va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurslar tejamkorligi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Nasos agregatlarida uch fazali asinxron motorlar energiya tejamkorlik masalalari asinxron motorning statik va dinamik ish rejimlari, rostlanmaydigan va rostlanuvchan asinxron motorlari ish rejimlari, ularning matematik modellari, chastota o‘zgartgich qo‘llashdagi asinxron motor ish rejimlari va xarakteristikalarini o‘zgarishlari, tashqi ta‘sirlar va energiya samaradorlikni turli xil holatlarida nasos agregati ish unumdorligi hamda uch fazali asinxron motorning ish samaradorligiga ta‘siri o‘rganishni talab etadi. Shu maqsadda nasos agregatlarida qo‘llaniluvchi uch fazali asinxron motorlarda chastota o‘zgartkichlar qo‘llash orqali energiya tejamkorlikka erishish ustida ilmiy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda.

Nasos agregatlarida qo‘llaniluvchi uch fazali asinxron motorlarda chastota o‘zgartgich qo‘llash orqali rostlash va shu bilan energiya tejamkorlikka erishishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va ko‘pgina oliy o‘quv yurtlari jumladan, «MEI» Milliy tadqiqot universiteti (Rossiya), Dresden University of Technology (Germaniya), University of Michigan (AQSh), University of Waterloo (Kanada), Tokyo technology institute (Yaponiya), Polytechnic University of Milan (Italiya), «O‘zbekenergo» AJ Ilmiy-texnika markazi MChJ, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Energetika muammolarini instituti, Toshkent davlat transport univesiteti, Andijon mashinasozlik instituti va boshqa oliy ta‘lim muassasalarida keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Rostlanuvchi elektr yuritma vositalari yordamida energiya tejamkorlikka erishish masalalariga T.M. Ferreira, G.R. Siemon, J. Otterpol, B.S. Ilinskiy, V.V. Moskalenko, G.B. Onishenko, I.Ya. Braslavskiy, B.S. Leznov, Howard E. Jordan, Ali Emadi, Thomas H. Durkin, L. Benny, Kincaid va boshqa olimlarning ishlari bag‘ishlangan.

Chastotaviy boshqariluvchi elektr yuritmalar asosida nasos agregatlari energiya tejamkor ish rejimlarini ishlab chiqish va joriy qilish, elektr dvigatellarning ish rejimlarini optimallashtirish va energetik samaradorligini oshirishga M.Z. Xamudxanov, T.S. Kamalov, R.A. Zaxidov, A.A. Xoshimov, O.Ya. Glovaskiy, N.M. Aripov,

F.A. Xoshimov, Q.G'. Abidov, O.X. Ishnazarov, O.Z. Toirov, A.A. Shavazov kabi mahalliy olimlar katta hissa qo'shdilar. Ushbu tadqiqotlar chastotaviy rostlanuvchi elektr yuritmalar asosida nasos agregatlarini ishga tushirish, melioratsiya va tog'-kon sanoati nasos qurilmalarida ishchi g'ildirak tezligini rostlash hisobiga energiya tejash, nasos stansiyalarining talab qilingan suvni grafik bo'yicha ko'tarib berishni mukammallashtirish bilan bog'liq. Biroq, sezilarli muvaffaqiyatlarga qaramay, nasos qurilmasining ish rejimlarini tashqi ta'sirlar va energiya samaradorligini hisobga olgan holda chastotali elektr yuritma orqali rostlash holatlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon mashinasozlik institutining quyidagi xo'jalik korxonalari bilan tuzilgan "Korxonalarda energoaudit tekshiruvlarni olib borish" shartnomalari bo'yicha № 2017-19 "SING LIDA" MCHJ portlandsement ishlab chiqarish korxonasi, № 2019-19 "EVRO EKFIN" MCHJ sutni qayta ishlash korxonasi, № 2020-19 "Andijon Biokimyo Zavodi" AJ larda ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: sanoat korxonalari texnologik jarayonlarida qo'llaniluvchi chastotali rostlanadigan nasos qurilmasini samaradorligini oshirish maqsadida tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish va usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- sanoat korxonalari texnologik jarayonlarida qo'llaniladigan chastota o'zgartgichli asinxron elektr yuritmalari nasos qurilmalarida energiya samaradorlik va energiya tejamkorlik bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining adabiyotlar sharhi va tahlilini o'tkazish;

- nasos qurilmasining tashqi ta'sirlar, ish rejimining o'zgaruvchanligi va energiya samaradorligini hisobga oluvchi matematik modelini takomillashtirish asosida nazariy tadqiqotlar o'tkazish;

- nasos qurilmasining ish rejimi ko'rsatkichlarini tashqi ta'sirlar va tizimning o'zgarishiga moslashuvchan holda boshqarish algoritmini ishlab chiqish;

- nasos qurilmasining ish rejimlarini optimallashtirish va rezervuaridagi suv sathini samarali boshqarishga qaratilgan usulni takomillashtirish;

- texnologiya jarayonining talablarini hisobga olgan holda "chastota o'zgartgich-asinxron motor-nasos-quvur-rezervuar" tizimining imitatsion modelini ishlab chiqish hamda tajriba-sinov modeli asosida eksperimentlar o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida tashqi ta'sirlar va energiya samaradorligini hisobga olgan holda chastota o'zgartgich orqali boshqariladigan asinxron elektr yuritmalari nasos qurilmasi.

Tadqiqotning predmeti chastota o'zgartgichli asinxron elektr yuritmalari nasos qurilmasining ish rejimlarini tashqi ta'sirlar va energiya samaradorligini maqbullashtirish sharoitida boshqarish usuli va algoritmi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida uch fazali asinxron motorlarning elektr yuritma nazariyasining va ularni boshqarishning zamonaviy usullari, ularda sodir bo'ladigan statik va dinamik xarakteristikalar, matematik modellashtirishning zamonaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnologik jarayonda mavjud bo'lgan tashqi ta'sirlar va ish rejimining o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda chastotali rostlanadigan nasos qurilmasini energiya samarador boshqarishga imkon beruvchi matematik model takomillashtirilgan;

chastotali rostlanadigan nasos qurilmasiga tashqi ta'sirlarning omillar analizini olib borish evaziga asosiy tashqi ta'sirlar aniqlanib, ularning o'zgarishiga moslashgan energiya samarador boshqarish algoritmi ishlab chiqilgan;

tashqi ta'sirlar o'zgarishini inobatga olgan holda nasos qurilmasining ish rejimini chastotali rostlash asosida rezervardagi suv sathini boshqarishda energiya tejashni ta'minlashga asoslangan usul takomillashtirilgan;

sanoat korxonasi texnologik jarayonida mavjud tashqi ta'sirlar o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda energiya samarodlikni baholashni imkonini beruvchi "chastota o'zgartgich-asinxron motor-nasos-quvur-rezervuar" tizimining imitatsion modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nasos agregatlaridagi rostlanadigan uch fazali asinxron motorlarning elektr energiyani va suv iste'molini samarali boshqarish uchun tashqi ta'sirlar omillar analizi natijisida 3 ta asosiy ta'sirlar aniqlangan;

suv rezervuaridagi suv balandligiga mos holatda chastota o'zgartgichning rostlash mezonini takomillashtirilgan;

"tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalni nasos qurilmasi" tizimi dasturiy ta'minoti yaratilgan;

"tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalni nasos qurilmasi" tizimining strukturaviy sxemasi tuzilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi chastota o'zgartgich bilan rostlanuvchi uch fazali asinxron motorlar ishlab chiqilgan matematik modellarni qo'llash, nazariy va eksperimental tadqiqot modellari, statik, dinamik va texnik tavsiflari asosida olingan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalari umumqabul qilingan mezonlar asosida qiyosiy solishtirish orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nasos stansiyalarini chastotaviy rostlanuvchi elektr yuritmal asosida "tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalni nasos qurilmasi" tizimini ishlab chiqish, taklif etilayotgan tizimda kechadigan statik va dinamik tavsiflarni olish hamda tizimning boshqaruv usulini yaratish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati energiya tejamkorlik va energiya samaradorlikni oshirish uchun nasos agregatlarida "tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalni nasos qurilmasi" tizimi asosida unumdorligini hamda elektr energiyani iste'molini samarali boshqarish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalni nasos qurilmasi qo'llanilgan holda boshqariladigan nasos agregatlaridagi uch fazali asinxron motorlarni energiya tejamkor ish rejimlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari asosida:

tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalari nasos qurilmasi tizimini qo'llanilgan holda boshqariladigan nasos agregatlaridagi uch fazali asinxron motorlarni energiya tejamkor ish rejimlari tizimi "Andijon Biokimyo Zavodi" AJ va EVEREST ASBEST" MChJlarda joriy etilgan (Energetika vazirligining 2024 yil 17 maydagi 04-11-3407–son ma'lumotnomasi). Natijada, texnologik jarayonda qo'llaniladigan nasos qurilmalarini foydalanishda 3 ta tashqi ta'sirni inobatga olgan holda rostlash evaziga chastota o'zgartgich orqali optimal boshqarish imkoniyati yaratilgan;

nasos qurilmasining ish rejimini chastotali rostlash asosida rezervuardagi suv sathini boshqarishda energiya tejashni ta'minlaydigan takomillashtirilgan usul "Andijon Biokimyo Zavodi" AJ va EVEREST ASBEST" MChJlarda joriy etilgan (Energetika vazirligining 2024 yil 17 maydagi 04-11-3407–son ma'lumotnomasi). Natijada, rezervuardagi suv sathini nazorat qilishda tavsiya etilgan 6 ta maqbul diapazonga mos holdagi chastota va kuchlanish orqali asinxron elektr yuritmalari nasos qurilmalarini elektr energiya bilan ta'minlashda korxonalaridagi 110 kW va 45 kWlik nasos agregatlarida energiya tejamkor ish rejimlari qo'llangan holatda yillik samaradorlik ko'rsatkichi 3,1% bo'lib, 153,2 mln.so'm iqtisod qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy natijalari 5 ta xalqaro konferensiyalarda, shundan 2 ta Scopus bazasiga kiritilgan, 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy–amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ishlar, ulardan 6 ta maqolalar O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda, shu jumladan 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan. 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarga O'zR Intelektual mulk agentligi tomonidan qayd qilinganlik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqot maqsadi va vazifalari aniqlangan, tadqiqot ob'yekti va predmeti yoritilgan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ishonchliligi asoslangan, ilmiy tadqiqotlar natijalarining ishlab chiqarishga joriy etish ma'lumotlari olingan, tadqiqot ishining aprobatsiya natijalari, e'loni qilingan ishlar bo'yicha ma'lumotlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

"Ishlab chiqarish korxonalarida suv resurslari bilan ta'minlash tizimi va ularda nasos agregatlaridan foydalanish holati" nomli birinchi bobda so'nggi yillarda nasos stansiyalari bo'yicha ilmiy ishlarda amalga oshirilgan tadqiqotlarning tahlillari olib borilgan. Tahlillar natijasida, korxonalarda chastota o'zgartgichli elektr yuritmalarda sezilarli energiya tejamkorlikka erishiladi, lekin buning uchun past chastotalarda ishlashini ta'minlash kerak. Korxonada suv ta'minot tizimida uning

boshqarilishi ma'lum bir qonuniyatiga amal qilish murakkab bo'lib ko'p sonli tashqi ta'sirlar evaziga sodir bo'ladi. Bu o'z o'rnida chastotali boshqaruvning nazariy asosida berilgan tejamkorlik darajasiga erishishga to'sqinlik qiladi. Bu orqali moslashuvchan parametrlar orqali chastota o'zgartgichga buyruq berish orqali optimal boshqarish nuqtasi va chegaralarini aniqlash mumkin.

Ushbu tadqiqot ishida korxonalarda xo'jalik shartnomalari bo'yicha olib borilgan enegretik tekshiruvlarida aniqlangan muammolar asosida nasos agregatlaridagi asinxron motorlarning energiya tejamkor ish rejimlarida foydalanish ilmiy-amaliy yechimlari taklif etilgan. Energetik tekshiruvlari "SING LIDA" MCHJ – portlandsement ishlab chiqarish korxonasi, "Andijon Biokimyo Zavodi" AJ – etil spirt ishlab chiqarish korxonasi, "EVRO EKFIN" MCHJ – sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi, "KHAN TEX GROUP" MCHJ –tekstil va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi klasteri korxonalarida 2017-2023- yillar davomida olib borilgan.

Sanoat korxonalarida olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, suv tizimlarida energiya tejamkorlikni ta'minlash uchun asinxron elektr yuritmalari nasos qurilmalarida o'rnatilgan chastota o'zgartgich qurilmalari kutilgan tejamkorlik natijalarini bermagan. Buning sabablari o'rganilganda esa quyidagilar ma'lum bo'ldi:

- chastota o'zgartgich orqali boshqarish qo'l yordamida amalga oshirilishi;
- iste'molga bog'langan holda kerakli tezlikni rostlanmasligi;
- asosan silliq ishga tushirish uchungina foydalanish;
- talab kam bo'lgan vaqtda ham chastotali rostlanuvchi asinxron elektr yuritmani yuqori chastotalarda foydalanish;
- nasos qurilmasi ish rejimida teskari aloqaning mavjud emasligi;
- nasos qurilmalari ish rejimiga tashqi ta'sirlarni inobatga olmagan holda sozlanishi.

Mazkur bobning davomida aniq tadqiqot olib borilgan joy sifatida "Andijon Biokimyo Zavodi" AJ ning suv ta'minot tizimi tanlab olingan bo'lib, mazkur sanoat korxonasida mahsulot ishlab chiqarishda suv resurslaridan foydalanishning rejimi hamda suv ta'minot tizimida o'rnatilgan nasos agregatlarining texnik parametrlari keltirilgan.

Bobning davomida nasos qurilmalarini boshqarishda keng qo'llaniladigan usullar, ularning afzalliklari va kamchiliklari haqida so'z yuritilgan bo'lib, sanoat korxonalarida suv ta'minotining o'ziga xos jihati hisoblangan statik bosim haqida va uning mazkur boshqarish usullariga ta'siri bayon etilgan. Bob davomida suv tarmoqlari tizimlarida keng qo'llaniladigan boshqarish usullardan nasosning bosim tarmog'ini drossellash, bosim tarmog'idan so'rish tarmog'iga oqimning bir qismini yo'naltirish va markazdan qochma nasos ishchi g'ildiragining aylanish tezligining o'zgartirish kabi turlari atroflicha o'rganilgan holda sanoat korxonalarining suv ta'minoti tizimlari uchun nasos uskunalari ish rejimlarini tartibga solishning optimal usuli chastotali boshqariladigan elektr yuritma orqali ishchi g'ildirakning tezligini o'zgartirishdir, degan xulosaga kelingan.

Katta va kichik nasoslar bilan tajriba o'tkazish natijasida, $Q-H$ bosim xarakteristikalarini olganda, past tezlikda $n \leq (0,1 \div 0,15) n_{nom}$ da nasos suv oqimi va bosimi o'rtasidagi aniq bog'liqlik yo'qolishini va buning o'rniga parabolik egri chiziqning $Q-H$ maydonida nuqtalarning tasodifiy tarqalishi paydo bo'ladi, bu nasos

bosimining uning ta'minotiga bog'liqligini tavsiflay olmaydi. Bu tezlikning nominal qiymatidan juda katta og'ishi bilan ishlaydigan va nominal tezlikda ishlaydigan bir xil nasosning ish rejimlarining gidravlik o'xshashligi sezilarli darajada buzilganligi bilan bog'liq.

Nasos xarakteristikasi hisoblangan $Q-H$ koordinatalarida uning ish nuqtalarining geometrik joyi quvur liniyasining ish xarakteristikasida yotadigan nasosning aylanish tezligini saqlab turish maqsadga muvofiqdir. Nasos va quvur liniyasining aylanish chastotasiga nisbatan bosim xarakteristikasi tenglamasining yechimini birlashtirgan hamda quyidagi ifoda olinadi

$$n = n_{nom} \sqrt{\frac{H_{st}}{H_t} + \left(1 - \frac{H_{st}}{H_t}\right) \left(\frac{Q}{Q_k}\right)^2}, \quad (1)$$

bu yerda H_{st} – bosimning statik tashkil etuvchisi; H_t – nol suv bosimidagi suv ko'tarishning taxminiy balandligi; Q_k – tizim uchun eng katta nasos suv uzatishi; Q – nominal suv uzatishi; n_{nom} – nominal aylanish tezligi.

Bob yakunida hozirda energiya tejamkorligi boshqa usullarga qaraganda yuqori bo'lgan chastota o'zgartgich orqali rostlashda tashqi ta'sirlarni inobatga olmaslik holatida suv ta'minot tizimlarda yetarlicha energiya tejamkorlikka erishib bo'lmashligi ma'lum bo'ldi.

“Tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalari nasos qurilmasi tizimini nazariy asoslari” nomli ikkinchi bobning avvalida nasos qurilmalarda qo'llaniladigan chastota o'zgartgichlarga qo'yiladigan talablar o'rganilgan.

Unga ko'ra suv rezervuarlarida suv darajasini avtomatik rostlashda chastota o'zgartgichli asinxron elektr yuritmalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiya nafaqat nasoslarning samarali ishlashini ta'minlaydi, balki energiya tejamkorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Chastota o'zgartgichlardan esa odatda oddiy suv ta'minoti tizimlari uchun skalyar boshqaruvli yuritmalar afzal ko'riladi. Bobning birinchi qismi ushbu xulosalar olingan bo'lib, unga ko'ra nasos qurilmalarida foydalanish uchun skalyar boshqaruv turi maqbul hisoblanadi va tadqiqotning davomida ushbu boshqaruv usuli tanlagan holda yechim berilgan.

Ushbu tadqiqot chastotali yuritmalarni tanlash va ulardan foydalanish bo'yicha texnik-tashkiliy yechimlarni o'z ichiga oladi, bu esa suv ta'minoti tizimlarining energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur bobning keyingi qismlarida chastota o'zgartgich va asinxron motorning matematik modellari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, chastota o'zgartgich va asinxron motor tizimining matematik modelini tuzishda avvalo ushbu chastota o'zgartgich qurilmasini ta'minlaydigan uch fazali elektr tarmog'ini mansub matematik ifodalar keltiriladi.

Keyingi o'rinlarda chastotani o'zgartirgichning matematik modeli tenglamalarini, ya'ni uch fazali to'g'rilagich, to'g'rilangan kuchlanishni filtrlash va uch fazali inverter bitta A faza uchun o'zgaruvchan kuchlanishni hosil qilinishi jarayonining matematik ifodalari keltirib o'tilgan.

Ikkinchi paragraf davomida qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron motorning dq koordinatalarida tuzilgan matematik tavsifi, aylanuvchi elektromagnit maydon, rotorning aylanish tezliklari burchak tezliklarga bog‘liq holda aniqlash ifodalari keltirib o‘tilgan. So‘ngra sirpanishni hisobga olgan holda asinxron motor hosil qilayotgan elektromagnit moment va aylanish tezliklarini markazdan qochma nasosga ta’siri va unda hosil bo‘luvchi balandlik va unumdorlikning to‘liq matematik ifodalari keltirib o‘tilgan. Keyingi o‘rinlarda ushbu birliklar bilan bir tizimda joy olgan suv rezervuaridagi suv balandligini rostdash masalasi ko‘rib chiqilgan.

Suv darajasini rostdash modeli — har bir suv bakining suv darajasi o‘zgarishi quyidagi tenglama orqali ifodalangan:

$$\frac{dh}{dt} = \frac{Q_{in} - Q_{out}}{A}, \quad (2)$$

bu yerda h - bakdagi suv darajasi; Q_{in} - nasosdan kirayotgan suv miqdori; Q_{out} - bakdan chiqayotgan suv miqdori (ishlab chiqarish uchun olinadigan suv); A - bakning kesim maydoni.

Daraja datchiklari har bir bak uchun darajani o‘lchab, SCADA yoki PID tizimga signal beradi. Tizim PID orqali nasos tezligini rostdashga imkon beradi.

Tashqi ta’sirlar modeli — ishlab chiqarish jarayonida suv sarfi va kerakli baklarning to‘liq bo‘lishini talab qiladigan o‘zgaruvchilar ham kiradi:

$$Q_{out}(t) = k \cdot D, \quad (3)$$

bu yerda k — ishlab chiqarish jarayonidagi suv sarfi o‘zgarishini ifodalovchi koeffitsiyent; D — ishlab chiqarish davri yoki rejimi.

Suv rezervuari (baki) va suv darajasi datchiklari.

Har bir rezervuar suv darajasini o‘lchaydigan datchiklar bilan jihozlangan bo‘lib, bu datchiklar foiz ko‘rinishida suv miqdorini ko‘rsatadi. Suv darajasi h quyidagicha ifodalanadi:

$$h(t) = \frac{V_{rez}(t)}{V_{rez. max}}, \quad (4)$$

bu yerda $V_{rez}(t)$ - rezervuardagi haqiqiy suv hajmi; $V_{rez. max}$ - rezervuarining maksimal hajmi.

Suv oqimiga qarab, rezervuardagi suv darajasining o‘zgarishi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$\frac{dV_{rez}(t)}{dt} = Q_{in}(t) - Q_{out}(t), \quad (5)$$

bu yerda $Q_{in}(t)$ – rezervuarga kelayotgan suv oqimi; $Q_{out}(t)$ – ishlab chiqarish jarayoniga ketayotgan suv oqimi.

Matematik ifodani funksiyasini chastota o‘zgartgichli elektr yuritma bilan bog‘lash uchun nasosning quvvat iste’molini va suv darajasidagi xatolarni kamaytirishga asoslangan matematik ifodani tuzish mumkin. Quyidagi matematik model misolida chastotali o‘zgartgich orqali boshqariladigan parametrlar asosida energiya samaradorligini oshirishga e’tibor qaratiladi:

$$W = \int_0^M \left(w_1 P(f(t)) + w_2 ((H_i - H_{st}) - H(t))^2 + w_3 (Q_i - Q(t))^2 + w_4 \left(\frac{df(t)}{dt} \right)^2 \right) dt, \quad (6)$$

bu yerda w_1, w_2, w_3, w_4 – mos ravishda quvvat, balandlik, suv uzatish va chastota o‘zgartgichning tajribaviy koeffitsiyentlari; H_i va Q_i – mos ravishda talab etilgan balandlik va suv uzatish qiymatlari; $H(t)$ va $Q(t)$ – mos ravishda t vaqt momentidagi hosil qilinayotgan balandlik va bosim; H_{st} – statik bosim.

$P(f(t)) = M(f(t)) \cdot \omega(f(t))$ - quvvat chastotaga bog‘liq holda hisoblanadi, chunki chastota o‘zgartgich orqali chastota o‘zgartirilganda nasosning momenti $M(f(t))$ va burchak tezligi $\omega(f(t))$ o‘zgaradi.

$\frac{df(t)}{dt}$ – chastotaning o‘zgarish tezligi tashqi ta’sirlarni minimallashtirish uchun matematik modelga qo‘shilgan.

Ushbu tenglamalar tashqi ta’sirlarni inobatga olgan holda chastota o‘zgartgich orqali nasos qurilmasi asinxron elektr yuritmasini matematik tarzda tavsiflash imkonini beradi, bu suv tizimini samarali boshqarishning asosiy jihati hisoblanadi.

Bob yakuni bo‘yicha quyidagicha xulosalar olingan bo‘lib, ular:

Nasos qurilmalarida qo‘llaniladigan chastota o‘zgartgich qurilmasiga qo‘yiladigan talablarni aniqlashtirish davomida faqatgina asinxron motor va nasos qurilmasi texnik parametrlarini hisobga olish bilan cheklanib qolmay, ushbu tizimda mavjud tashqi ta’sirlar va energiya samaradorlik asosidagi ish rejimlarga ham muvofiqligi inobatga olinishi zarurligi aniqlandi;


Sanoat korxonalari suv ta’minot tizimlaridagi nasos qurilmalar ish rejimlariga va uning energiya samaradorligiga ta’sir etuvchi tashqi ta’sirlar–ishlab chiqarish jarayonida suv resursiga bo‘lgan talabning o‘zgarishi ekanligi aniqlanib, bunda ushbu o‘zgarishlar vaqtida chastotali rostlanuvchi asinxron elektr yuritmada energiya iste’molini minimallashtirish evaziga suv ta’minotini boshqarish usulining matematik ifodalari taklif etildi;

Tashqi ta’sirlar va energiya samaradorligini hisobga olgan holda chastotali elektr yuritma orqali rostlashda mavjud chastota o‘zgartgich, asinxron motor, nasos qurilmasi kabi suv ta’minot tizimlarining mavjud matematik modellari ushbu qurilmalar joylashgan suv ta’minot tizimining tashqi ta’sirlarini uning ish rejimiga bog‘liqligi va undagi energiya tejankorlikni ta’minlash mezonini asosida takomillashtirildi.

“Tashqi ta’sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalari nasos qurilmasi tizimini amaliy asoslash” nomli uchinchi bobda mazkur tizimni funksional va strukturaviy sxemalari, boshqarish va rostlash algoritmlari, boshqarish metodi va statik ish rejimlari tadqiq etilgan.

Nasos agregatida “tashqi ta’sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalari nasos qurilmasi” tizimi energiya samarali boshqaruvni ta’minlashda axborot-o‘lchov qurilmalarining o‘rni muhim bo‘lib, ularning ishlashi va bog‘liklarini tavsiflash zarur. Bunda asosiy o‘zgarishlar va ma’lumot olish ultratovushli datchikda amalga oshirilgan. Shuning uchun quyida mazkur qurilmalarning strukturaviy sxemalari va o‘tkazish funksiyalarini ko‘rib chiqilgan.

Ushbu umumiy strukturaviy sxemada asosiy bog‘liqliklar inobatga olingan holda ishlab chiqilgan hamda tashqi ta’sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalari nasos qurilmasi tizimining algoritmi va avtomatik boshqaruv tizimini yaratishda asos bo‘lib xizmat qiladi.



1-rasm. Tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalni nasos qurilmasi tizimining strukturaviy sxemasi

Tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalni nasos qurilmasi tizimining algoritmini yaratishdan maqsadni aniq belgilab olish zarur bo'lib, mazkur algoritm – suv rezervuaridagi suv darajasini kerakli balandlikda ushlab turish bilan birga energiya sarfini minimallashtirish talablariga javob berishi kerak. Bu algoritm energiya, balandlik farqi va chastotaning o'zgarish tezligini hisobga oladigan qiymat funksiyasiga asoslanadi.

Algoritmning afzalliklari quyidagicha:


- Energiya samaradorligi: $W(t)$ ni minimallashtirish orqali quvvat sarfi kamaytiriladi;
- Barqaror boshqaruv: PID boshqaruv yordamida suv darajasi aniq boshqariladi;
- Silliq ishlash: Chastotani asta-sekin o'zgartirish mexanik qismlarga zarar yetkazmasdan ishlashni ta'minlaydi;
- Dinamik moslashuv: Suv talabiga mos ravishda chastota o'zgartiriladi va ortiqcha energiya sarfi paydo bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Algoritm asosida suv balandligiga mos holatda energiya tejamkor ish rejimi ta'minlanadi.


Quyida suv datchikdan olingan axborotni boshqaruv blokiga uzatilib, mos ravishda maqsadli bosimni ta'minlash uchun amallar ketma-ketligini ifodalovchi algoritmni tuzilgan.

Ushbu algoritm suv rezervuaridagi suv balandligini aniqlash va suv sathiga qarab chastotani avtomatik ravishda boshqarish vazifasini bajaradi. Bu maqsadda suv balandligini kuzatish uchun ultratovushli datchik, boshqaruv signalini uzatish uchun PID nazorat va nasos dvigatelinig aylanish tezligini moslashtirish uchun chastota o'zgartirgich ishlatiladi.

Algoritmning ishlash tizimi – algoritm suv rezervuaridagi amaldagi suv sathini kuzatib boradi va suv sathi kerakli qiymatdan og'ishiga qarab nasos tezligini moslashtiradi.



2-rasm. Tashqi ta'sirlarni inobatga olgan holda chastotali rostlanadigan asinxron elektr yuritmalni nasos qurilmasi tizimining algoritmi



3-rasm. Suv balandligiga mos holda chastota o'zgartirishda kerakli chastotani tanlash algoritmi

Chastotalar oralig'i va maqsadlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi.


Har bir chastota oralig'i suv sathining aniq chegaralariga moslashtirilgan bo'lib, quyidagi maqsadlarga erishishni ta'minlaydi:

- maksimal samaradorlik – har bir suv sathida nasosning optimal ishlash tezligi tanlanadi;
- energiyani tejash – suv talabiga mos ravishda chastota pasaytirilib, energiya sarfi kamaytiriladi.
- ortib qolish xavfini oldini olish – rezervuar to'lishini aniq nazorat qilib, suvning isrof bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ikki algoritm birgalikda taklif etilayotgan tizimning boshqarish tizimini loyihalashga asos bo'lib xizmat qiladi va keltirilgan algoritmlar asosida kelgusi bo'limlarda boshqaruv sxemasi, tajriba-sinov va imitatsion modellari tuzilgan.

Asinxron motor tezligini chastotaviy rostdash usulini amalga oshirishda, asinxron motor statoridagi kuchlanishni ham rostdash imkonini beradigan chastota o'zgartkichni qo'llanish zarur bo'ladi.

